

**II MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

MAXMUDOVA DURDONA MIRKARIMOVNA

**ERTAKLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI
BOLALARNI KITOBXONLIKKA TAYYORLASH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po
pedagogicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Maxmudova Durdona Mirkarimovna

Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash.....3

Махмудова Дурдона Миркаримовна

Подготовка детей старшего дошкольного возраста к чтению посредством сказок.....

Makhmudova Durdona Mirkarimovna

Preparing children of senior preschool age for reading through fairy tales.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список о опубликованных работ

List of publications.....

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

MAXMUDOVA DURDONA MIRKARIMOVNA

**ERTAKLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI
BOLALARNI KITOBXONLIKKA TAYYORLASH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.2.Phd/Ped3797 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.mdomoi.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Fotima Rashidovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ximmataliev Do'stnazar Omonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Djanpeisova Gauxar Erkinovna
pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Xojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871)150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100070, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Xojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil “___” _____dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

Q.T.Olimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

Sh.S.Sharipova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
p.f.f.d. (PhD), dotsent

Z.K.Ismailova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi va faoliyat jarayonida kitobxonlikka tayyorlash alohida o'ringa ega. Jumladan, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Finlandiya, Angliya kabi davlatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kitobga qiziqishlari bo'yichada ma'lum tajribalar to'plangan. O'zbekiston Respublikamiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham bolaning yoshiga munosib holda unga kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan keng miqiyosida tashkiliy, uslubiy, amaliy ishlar olib borilmoqda. Ushbu jarayon jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy rivoji borasida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida kitobsevar, kitoblar orqali olamni, jamiyatni, uning muammolarini insonparvarlik nuqtaiy nazaridan idrok etishni shakllantirish zaruriyatining nazariy metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limning nazariy va amaliy asosidagi pedagogik tizimda maktabgacha katta yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirishga doir ayrim tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, aynan bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ertaklarning o'rni va ahamiyati (roli) alohida tadqiq etilmagan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mazkur muammo bo'yicha ilmiy tadqiqotlar borasida ayrim ishlanmagan jixatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2025 yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturidagi farmonda aholi, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash; mutolaa madaniyatini yuksaltirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va metodlarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadini ta'kidlagan ko'rsatib o'tgan. Ilmiy-metodik adabiyotlar, izlanishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashda Maktabgacha ta'lim Vazirining 2018 yil, 18 iyundagi 1-mh-son "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda 802-son Qarori "Ilk qadam davlat o'quv dasturi"da belgilangan beshta rivojlanish markazlar integratsiyasi asosida bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning 1."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion

g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Maktabgacha ta'lim bo'g'inida bolalarni kitobxonlikka tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlaridan biridir. Shuning uchun ushbu masala ma'lum darajada pedagog olimlarimiz tomonidan o'rganilib kelingan.

O'zbekistonlik olimlardan maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarining turli bosqichlarida bolalarni rivojlantirish muammolari, ularni badiiy adabiyotga qiziqishlarini tarbiyalash bo'yicha F.R.Qodirova¹, Z.M.Azizova, M.N.A'zamova, D.R.Babaeva, G.A.Berdaliev, M.M.Jumabaev, I.N.Do'stxo'jaeva, L.R.Mirjalolova, M.M.Nigmatova, I.I.To'ychieva, S.S.Raximova, F.O'.O'rinova, Q.R.Quronboevalar ilmiy tadqiqot ishlarni olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy jarayonlarning mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy va psixologik jihatdan tarbiyalash, ularda nutq ko'nikmalarini hosil qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish, mazkur jarayonda milliy qadriyatlardan foydalanish, barkamol insonni tarbiyalash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ilmiy tadqiqotlarida aks ettirilgan.²

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) olimlaridan Y.Antonova³, L.Bojovich, V.Gerbova, N.Dunaeva, A.Ivanenko, N.Ivanova, V.Loginova, G.Shukina va boshqalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishning psixologik va pedagogik masalalarini yoritganlar.

Xorij olimlaridan Kristal Krajovi, Baker-White Robert, Yun-Tae Kim, Kathryn Leechlar⁴ o'z milliy mintaletlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni ertak, ertakterapiya va o'yinlar asosida badiiy-estetik, axloqiy rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta'lim tashkilot yoki muassasasinin ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxasislarni qayta

¹ Qodirova F.P. "Bolalar nutkini ўstirish nazariyasi va metodikasi" (Darslik) – T.: «Истиқлол», 2006
Qodirova F.P. va boshq. "Maktabgacha pedagogika" – T.:«Тафаккур» 2019-685.; Azizova. Z.M. "Maktabgacha katga ёшдаги болаларда қўғирчоқ театри воситасида ахлоқий–эстетик сифатларини шакллантириш" п.ф.ф.д. (PhD), дисс. – Т., 2020; Аъзамова. М.Н. "Maktabgacha тайёрлов гуруҳ тарбияланувчиларида дўстона муносабатларга асосланган ҳамкорлик кўникмаларини шакллантириш тизимини такомиллаштириш" п.ф.ф.д. (PhD), автореферат – Т., 2020; Жумабаев М. Ўзбек болалар адабиёти.– Т.: «Ўзбекистон», 2001, Бабаева. Д.Р. "Теварак-атрофни ўрганишда мактабгacha катга ёшдаги болаларни боғланиш нутқини ривожлантириш" п.ф.н. автореферат – Т., 2001; Бердалиева. Г.А. "Maktabgacha таълим муассасаларида нутқ ўстириш фаолиятларида болаларни мустакил фикрлашга ўргатиш методикасини такомиллаштириш" п.ф.ф.д. (PhD) автореферат – Т., 2020. Do'stxo'jaeva. I.N. O'zbek sehrli ertaklarining struktural tahlili. fil. f. nom. avt.T.,1999 yil.

³ Антонова, Е.С. Как я воспитываю интерес к книге М.,2005 Божович, Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – М. : «Просвещение», 2008,Гербова В. В. Приобщение детей к художественной литературе. Программа и методические рекомендации. – М.: Мозаика – Синтез, 2012..

⁴ Baker-White Robert E. Popular theatre and literary text in contemporary drama: The dialectic of appropriation: Dissertation Doctor of Philosophy – Stanford University, 1990, Kathryn Leech: "Ready for kindergarten: a training program designed to encourage parent-child conversation during the preschool years " Doctor of Philosophy, 2016 Krystal Krajovic : "Fairy tales: a continual work in progress. A thesis submitted to the Kent State University Honors College in partial fulfillment of the requirements for University Honors by" Dissertation Doctor of Philosophy, Yun-Tae Kim. History of children's theatre in korea: from the beginning to the present time: 1920-1998: Dissertation Doctor of Philosophy. – United States, 1999.

tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti V2022.2 (PhD) Ped. 3797 ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalarning ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari» bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturiga muvofiq rivojlanish markazlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maxalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarning taxlili asosida “maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlash” tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash hamda tahlil qilish;

ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash modelini ishlab chiqish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlash bo‘yicha didaktik materiallar ishlab chiqish;

maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashda elektron ertaklar, ko‘rgazmali materiallarni takomillashtirish va pedagogik tajriba-sinovdan o‘tazish.

Tadqiqotning ob'ekti maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida rivojlanish markazlar integratsiyasi asosida kitobxonlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahridagi, Mirobod tumani, 506- son, Toshkent viloyati Angren shahridagi 26-son, Samarqand shahridagi 27-son, 127 - son, Sirdaryo viloyati Guliston shahri 9-son, 19- son davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining jami 312 nafar maktabgacha katta yoshdagi bolalar jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirishning mazmuni, metodlari, shakllari va vositalari.

Tadqiqotning usullari: tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, o‘quv-me'yoriy hujjatlar, o‘quv va metodik pedagogik-psixologik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, tarbiyalanuvchilar faoliyatining qiyosiy tahlili, suhbat, tajriba-sinov, matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash jarayoni “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarini integratsiyalashtirish hamda mavzuli rejaga sexrli-fantastik, maishiy-xayotiy, she'riy ertaklarni kiritish orqali takomillashtirilgan;

maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning modeli, yosh xususiyatlarini inobatga olgan xolda ko‘rgazmallilik va innovatsion yondashuvlar asosida ularni kitob o‘qishga qiziqtirish; harflar bilan tanishtirish; unli va undosh harflarni farqlash; harflarni o‘zaro birlashtirib, so‘z, ibora, so‘z birikmalarini xosil qilish; so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish; 2-3 ta kichik iboralarni qo‘shib mutolaaga o‘rgatishning interfaol metodlarini qo‘llash tufayli takomillashtirilgan;

ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash metodikasi “Aqlvoyning sandig‘i” didaktik to‘plamini yaratish hamda “Sehri harflar mamlakati”, “Mnemo jadvali”, “Zanjir” “T-chizmasi” “O‘zim ertak aytaman”, “Harflar zanjiri” kabi interfaol metodlarini qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash bo‘yicha animatsion, 3-D ko‘rgazmali vositasi, mul’timediya, audioertaklar, videoertaklardan tashkil topgan “Aqlvoyning ertaklari” elektron ta’lim resurslari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashga doir ta’lim-tarbiya jarayonlari ishlab chiqildi;

bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda rivojlanish markazlarida ta’limiy jarayonlarni integratsiyalash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlovchi tayanch oliy o‘quv yurti xisoblangan Nizomiy nomidagi TDPU talabalari uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertaklar vositasida bolalarni kitobxonlikka tayyorlash metodikasi bo‘yicha maxsus o‘quv kursi yaratildi. Maktabgacha ta’lim mutaxasislari malakasini oshirish kurslarida ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy-metodik seminarlar tashkil etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotni amalga oshirishda qo‘llanilgan yondashuv, metodlar, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullar bilan asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning maktabgacha yoshdagi bolalarda oson o‘zlashtirilishining ilmiy-nazariy jixatdan asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan direktor, uslubchi tarbiyachilar uchun bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning usullari, tamoyillari, vositalari, metodlari tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda rivojlanish markazlardagi jarayonlar integratsiyasiga doir tadqiqot natijalari asosida:

Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashning ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlari mazmuni rivojlanish markazlarida integratsiyalashtirilgan ta’limiy jarayonlarni ta’minlash orqali ta’limga yetaklovchi ertaklarni ishlab chiqish hamda til va nutqni rivojlanish markazlarini tashkil etish asosida takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur metodik qo‘llanmadan bugungi kunda barcha maktabgacha ta’lim yo‘nalishi pedagoglari foydalanmoqda. Natijada maktabgacha ta’lim sifati va

bolalarda ijodiy faoliyat samaradorligi oshirilgan; (Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021 yil 01 mart 02-02/2-607-sonli ma'lumotnomasi)

Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagoglari uchun "O'yin faoliyatlarini psixologik va pedagogik xususiyatlari" o'quv-qo'llanma, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturini pedagogik jarayonlarda qo'llash" o'quv-qo'llanma va "Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash" mavzusida maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun monografiya nashr etildi. Natijada maktabgacha ta'lim sifati rivojlantirilgan va samarali natijalar imkonini bergan;

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning mazmuni, ko'nikma, malakalarini ta'lim jarayonida rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining malakasini oshirish jarayonida va oliy ta'limda bo'lajak pedagoglar bilan seminar-treninglar o'tqazildi hamda ular o'quv-uslubiy ta'minot bilan qurollantirildi, bular samarali metodlarni qo'llash imkonini bergan; (Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021 yil 01 mart 02-02/2-607-sonli ma'lumotnomasi)

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida rivojlanish markazlar integratsiyasi asosida kitobxonlikka tayyorlash metodikasini qo'llash jarayoni belgilanib, sehrli-fantastik, ta'limiy, maishiy-hayotiy, tarbiyaviy, ijodiy va she'riy ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash metodikasini va motivatsion, kognitiv, ijodiy va refleksiv mezonlarini takomillashtirishga doir metodlar tajriba-sinov ishlari olib borildi va amaliyotga joriy etilganligi to'g'risida ma'lumotnoma mavjud. (Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021 yil 01 mart 02-02/2-607-sonli ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish markazlarida integratsiyalashtirilgan ta'limiy jarayonlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta metodik qo'llanma va 17 ta ilmiy maqola, shulardan, 13 tasi respublikada va 4 tasi xorijda ilmiy-anjumanlarda muhokamadan o'tqazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etildi, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan pedagogika fanlar falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda natijalari 3ta OAK jurnallari, 12 tasi respublikada va 4 tasi xorijda chop etildi, 3 ta metodik qo'llanma, 1ta elektron ertak to'plamlari yaratildi, 3 ta mualliflik huquqi ob'ektlarini deponentlash to'g'risida guvohnoma olindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, 150 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’ekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va metodlarni rivojlantirishning muhim yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, uning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashning nazariy asoslari**” deb nomlanib, maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik muammolariga oid masalalar yoritilgan. Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarning globallashuvi, axborot oqimining katta tezlik bilan rivojlanishi 6-7 yoshdagi bolalarning kitobxonlikka tayyorlashda ma’lum muammolar tug’dirmoqda. Bu holat kitobning yosh kitobxonga avvalgidek ta’sir o’tqaza olmayotganida ko’rinmoqda. Shu munosabat bilan, tadqiqot natijalariga ko’ra yuqorida keltirilgan sababalar asosida bugun maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ko’plab tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ma’lum muammolar ko’rsatilgan.

Mazkur muammoning yechimini topish bo’yicha ko’plab olimlar badiiy adabiyot bilan tanishtirishning tahlil qilib, olib borilgan ilmiy -tadqiqot ishlaridan namunalar keltirilgan. Ularning tadqiqotlarida, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, nutq o’stirish va ertaklarga bo’lgan qiziqishlarini rivojlantirish, milliy qadriyatlardan samarali foydalanish, barkamol shaxsni tarbiyalash kabi masalalar ochib berilgan.

Biroq, maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachilar bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashga oid metodlar o’z aksini topmagan. Vaholanki baracha MTT kutubxonalar mavjud va xar bir guruhda kitoblar burchagi tashkil etilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, bolalarni yoshiga mos yorqin, rangli, e’tiborga sazovor rasimli, bosma harfli ertaklardan tashkil topgan kitoblar yaratilmagan. Bularni inobatga olgan xolda “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida “Til va nutq” rivojlanish markazlarida ertaklar vositasida bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda no’anaviy kitoblar yaratish zarurligi to’g’risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka bo’lgan ehtiyojni shakllantirish jarayoni, asosan, ota-onalarning bunga qanchalik jalb qilinganligi bilan belgilanadi. Ko’p jihatdan oilaning kitoblarga bo’lgan munosabati, uyda ertak kitoblarni tashkil etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ertaklarga qiziqish namoyon bo’lishiga bog’liq. Bolada kitobxonni tarbiyalash uchun kattalarning o’zi kitobga qiziqish bildirishi, uning inson hayotidagi o’rnini tushunishi, bola uchun muhim bo’ladigan kitoblarni bilishi, bolalar adabiyoti yangiliklarini kuzatishi, bola bilan qiziqarli suhbat qurishi, hissiyotlarini samimiy ifoda etilgan.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashda pedagog va ota-onalarning sa’y-harakatlari birlashtirilsa, bolalarni


badiiy adabiyot bilan tanishtirish eng yaxshi natijalarni beradi. Maktabgacha katta yoshdagi har qanday davr adabiy tilni faol o'zlashtirish, nutqning barcha jihatlari: monolog, dialogik, grammatik rivojlantirish bilan tavsiflangan.

Kichkina kitobxonni shakllantirish uzoq va mashaqqatli jarayon bo'lib, u bolaning badiiy ijodkorlikka sezgirligini, ijod bilan o'qishiga munosabatini ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirishga bog'liq. Shu munosabat bilan 6–7 yoshli bolalarda bo'lgan qiziqishni shakllantirish nafaqat psixologik-pedagogik, balki jamiyatning ijtimoiy muammosi sifatida ham ko'rib chiqilgan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kitobxon sifatida faolligi, ularning inson tomonidan yaratilgan kitob bilan faoliyatning turli shakllarida ishtirok etishlari taxmin qilinadi.

Bolalarning ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlash faolligi va ta'limiy jarayon sub'ektlarining o'zaro aloqalarini ta'minlash alohida rivojlanish markazlarida olib borilgan. Shu nuqtai nazardan, bolalar faoliyati va ularning kitobxonlikka tayyorlashni rivojlantirish, ta'lim muammolarini hal qilishda muayyan ta'limiy jarayonlar, moddiy jihozlar va didaktik materiallar bilan ta'minlanishi muhim. Aynan shu jihat O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimida tatbiq etilgan «Ilk qadam» o'quv davlat dasturi asosida, maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash vazifalarini hal qilish jarayonlarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kitobxonlikka tayyorlash rivojlanish markazlarida integratsiyalashtirilgan ta'limiy jarayonlarda va kitoblar burchagida olib boriladi. Ta'limiy jarayonlar asosida bolalar badiiy ertaklar yozuvchilari haqida g'oyalarni o'zlashtiradilar, ertak va ertakli kitoblar bilan tanishish, tinglash, deklamatsiya, takrorlash orqali o'zlarini namoyon qiladilar. Shu tariqa bolalarni kitobxonlikka tayyorlash jarayonida o'zlarining fikrlarini mustaqil bayon eta oladilar, badiiy ertaklarga munosabatlarini aks ettira oladilar.

Dissertatsiyaning: “Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning pedagogik metodlari” deb nomlangan ikkinchi bobida 6-7 yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashda rivojlanish markazlarning integratsiyalashgan jarayonlarning olib borish faoliyati ochib berilgan.

“Til va nutq”, “Rolli o'yinlar va sahnalashtirish”, “Qurish-yasash va matematika”, “Ilm -fan va tabiat” “San'at” markazlarida olib borilgan jarayonlarda bolalarni kitobxonlikka tayyorlash mazmuni axloq-odob, nutq o'stirish, nafasat tarbiyasi, muloqot madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, tabiat, jamiyatga doir tushunchalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan matnlar, she'rlar, maqollar, mashqlar, hikoyalar, badiiy ertaklardan namunalar asosida boyitilgan. (1- rasm)



1-rasm Integratsiyalashtirilgan ta'limiy jarayonlarning tashkil etish

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashning pedagogik metodlaridan foydalanish imkoniyatlarinig mohiyati, shakllari olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida ochib berilgan. Bolalarni kitobxonlikka

tayyorlashda integratsiyalashtirilgan ta'limiy jarayonlarini o'tqazish tinch va tegishli hissiy muhitni yaratishni talab qiladi.

Birinchi qismda ertak bilan tanishish jarayonlarini tashkil etish. Undan asosiy maqsad bolalarni badiiy so'z orqali to'g'ri va ravshan idrok etishga o'rgatish, kitobxonlikka tayyorlash jarayonlari yoritib berilgan.

Ikkinchi qismda ertak mazmuni, badiiy shakli, badiiy ifoda vositalarini oydinlashtirish maqsadida o'qilgan ertak to'g'risida suhbat o'tkazish va bosma harflar bilan tanishtirish metodlari bayon etilgan.


Uchinchi qismda bolalarning hotirasida hikoya (ertak) yodda qolishi uchun, takroriy o'qish yoki bolalarga yoqqan lavhalarni qayta o'qishni tashkil etish, harflarni tanish. Unli va undosh harflarni farqlash, so'zlarni bo'g'inlarga ajratishda qo'llaniladigan ilmiy pedagogik metodlar yoritib berilgan.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashda integratsiyalashtirilgan jarayonlarning rivojlanish markazlarida tashkil etish, kitobxonlikka tayyorlash uchun badiiy kechalar o'tkazish va otalar bilan birgalikda oilada kutubxonalar tashkil etish, bolalar bilan ertaklarni birgalikda yosh xususiyatlariga muvofiq tanlash lozim. Tarbiyachi bolalar ertaklarni tanlashda ertak g'oyasi, ruhi va uslubini o'z ichiga olgan kitoblarga ustunlik berishi kerak. Tarbiyachining mazmunli o'qishi ham muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolada kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni shakllantirish uchun tarbiyachining ifodali o'qishi nafaqat zarur ko'nikma, balki bolalar uchun muhim tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan ta'limiy jarayonlar yoritib berilgan. Tarbiyachi ifodali o'qish yordamida bolalarni san'at olami bilan tanishtirish usullari, ularni to'g'ri, obrazli badiiy nutqqa yo'naltirilgan metodlarini qo'llash jarayonlari bayon etilgan.

Integratsiyalashgan rivojlanish markazlaridagi ta'limiy jarayonlarlar bolalarni kitobxonlikka tayyorlashga, bu faoliyatning samaradorlik ko'rsatkichi muntazam ortib borishiga yo'naltirilgan ekan, uning bosh maqsadi bilimlarni samarali o'zlashtirishdangina iborat emas aksincha, bilimlarni o'zlashtirishda bolalarini kitobxonlikka tayyorlashning eng qulay, oddiy tushuncha va tasavvurlardan murakkabga tomon boruvchi izlanish-intilishlari asosida uzluksiz o'zlashtirilishini ko'zda tutadi. Shu munosabat bilan, badiiy ta'lim ustida ishlashga kreativ yondashuvni shakllantirish, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tarbiyalash faqat pedagogik-psixologik hamda ilmiy-uslubiy bilimlar asosida amalga oshiriladi. Yuqoridagilarni inobatga olib, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlikka tayyorlashda ertaklarni qo'llash modelini ishlab chiqidgan. (2-rasm)

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlikka tayyorlashda ertaklarni qo'llash modeli

Ijtimoiy buyurtma: "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash



Natija "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga muvofiq ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar rivojlantirish markazlarida integratsiyalashtirilgan jarayonlar asosida kitobxonlikka tayyorlandi

2- rasm Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlikka tayyorlashda ertaklarni qo‘llash modeli

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ertaklarni qo‘llash modeli yaratildi. Ishlab chiqilgan modelda maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ertaklarni qo‘llash bosqichlari 3 (uch) komponentdan iborat bo‘lib, unda quyidagilar o‘z aksini topgan:

1-komponent – ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning tarkibiy komponenti;

2-komponent – kitobxonlikka tayyorlashda ertaklarni rivojlanish markazlarida integratsiyalashtirilgan jarayonlarda qo‘llash komponenti;

3-komponent – tashxislash komponenti.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ertaklarni qo‘llash modelining ahamiyatli jihatli quyidagilardan iborat:

– mualliflik modelining mazmuni boshqalardan farqli o‘laroq, tuzilishiga ko‘ra aniq, ravshanlikka ega, amaliy tatbiq uchun qo‘lay;

– maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda rivojlanish markazlaridagi integratsiyalashtirilgan jarayonlariga urg‘u berilishi;

– bajarilgan ilmiy-tadqiqot maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlikka tayyorlashda metod, usul va talablarni o‘z ichiga qamrab oladi.

«Bolalarni kitobxonlikka tayyorlashning tarkibiy komponentlari» deb nomlangan bo‘limda maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan ertaklarni qabul qilishning bosqichlari, kitobxonlikka tayyorlashning psixologik va pedagogik xususiyatlari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kitob o‘qishga jalb etishda samarali bo‘lgan vaqt hajmi, ertak turlari, ko‘rgazmali metod va vositalar to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan.

«Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda rivojlanish markazlaridagi integratsiyalashtirilgan jarayonlar komponentlari» deb nomlangan bo‘limda tarbiyachining tayyorgarligi, ertaklar bilan tanishtirish jarayonlarining tarkibi aniqlandi. Ertaklarni qayta hikoya qilish jarayonlarining tuzilishi, hikoya qilishga o‘rgatish usullari ochib berildi va qayta hikoya qilish uchun ertaklarni tanlashga qo‘yiladigan talablar ko‘rsatib o‘tildi. Ertaklarni tahlil qilishga bo‘lgan talablar bayon etilgan va bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda noan'anaviy kitoblarning yaratilish texnologiyalarini qamrab olingan va rivojlanish markazlaridagi ta'limiy jarayonlar bayon etilgan. Bulardan: “Ertakni davom ettir”, “Sehrli harflar mamlakati”, “Qaysi xarf so‘z boshida, qaysinisi so‘z oxirida keladi”, “Rasmlarni birlashtir va so‘zlarni xosil qil”, “So‘z o‘yinlari”, “Mening jajji kitobim”, “Bir xil xarflarni top”, “Kitobli uycha” “Rebuslar”, “Kimda qanday so‘z

xosil bo‘ldi?” ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarni ko‘rgazmali didaktik materiallardan foydalanib, kitobxonlikka tayyorlashda pedagogik texnologiyalarini rivojlanish markazlaridagi ta’limiy jarayonlarda qo‘llash usullari bayon etilgan.

«Tashxislash komponenti» deb nomlangan bo‘limda bolalarning kitobxonligini tashxislash maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan o‘tkazilgan tadqiqotda «Zanjir» metodi orqali ertaklarni ketma-ketlikda tuzish, xarflar ketma-ketligida kichik so‘zlar xosil qilish texnologiyasi, “Zanjir”, “Tarmoqlash” va «Mnemo» metodlari orqali bolalarni unli, undosh xarflar bilan tanishtirishda foydalanildi va ilk kitobxonlikka tayyorlash jarayonlari matematik-statistik tahlil qilindi. Tarbiyachilar va ota-onalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma asosan bolalarning kitobxonligi aniqlandi va o‘rta, past, yuqori darajalarga bo‘linib, mezonlar ko‘rsatkichi bayon etilgan. (3-jadval).

3-jadval.

Darajalar	Mezonlar
Yuqori daraja	Kitobxonlik tasavvuriga ega bolalarning faoliyatida mustaqillik, ijodiy xayolparastlik, muayyan g‘oyaning mavjudligi aks etadi. Ularda o‘z g‘oyalarini sharhlay olish, himoya qilish ko‘nikmalari shakllangan bajarilgan ishlarda (jarayonlarda) g‘oyalar o‘zining aniq ifodasiga ega, ularda kitobxonlik tasavvurlari orqali jamiyat, tabiat, inson hayotidagi voqeyeliklarni badiiy idrok etish malakalari shakllanadi va bu malakalarga ertaklar asosida o‘zlarining hayotga bo‘lgan munosabatlarini ifoda eta oladilar hamda kitobxonlik mazmunini idrok etishga tahliliy yondasha oladilar. Shuningdek, bu toifaga mansub bolalar o‘zlarining tasavvurlaridagi badiiy kitobxonlik tushunchalarini namoyon etishda ertak turlaridan foydalana oladilar, so‘zlardagi unli va undosh xarflarni ajrata oladilar, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrata oladilar, 2ta va 3ta harflardan kichik so‘zlar tuza oladilar hamda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini namoyon etadilar.
O‘rta daraja	Shakllangan kitobxonlik tasavvurlariga ega bolalar faoliyatida mustaqillik seziladi, bu holda ijodiylik yetishmaydi yoki aksi ta’limiy jarayonlarda muayyan g‘oya mavjud, lozim bo‘lganida uni sharhlash va himoya qilishga qodirlar, biroq ayrim hollarda g‘oyani mantiqiy yakuniga yetkazish amalga oshmay qoladi, ya’ni kiziqishlarda, jarayonlarda muntazamlilik, barqarorlik yetishmaydi. Bu guruhga mansub bolalar ertak turlarini biladilar hamda ularga o‘z munosabatlarini bildira oladilar, so‘zlardagi unli va undosh xarflarni farqlay oladilar, kitobxonlik mazmundagi xatti-harakatlarni biror-bir rivojlanish markazlarida namoyon eta oladilar, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar, lekin 2ta yoki 3ta harflardan kichik so‘zlar tuza olmaydilar.

Past daraja	Kitobxonlik tasavvurlari «past» deb baholangan bolalarni kitobxonlik tasavvurlarini yuqori darajaga ko‘tarish qiyin bo‘lgan bolalar mansub bo‘lib, ularning tabiiy moyilliklari, qiziqish yo‘nalishlari kitobxonlik mazmuniga mos emas, ular o‘z tabiatlariga ko‘ra mutlaqo boshqa sohaga qiziqadilar. Shuningdek so‘zlardagi unli va undosh xarflarni ajrata olmaydilar. So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lishda qiynaladilar.
--------------------	--

3-jadval. Bolalarning kitobxonligini tashxislash mezonlari

Dissertatsiyaning “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlash samaradorligi” deb nomlangan uchinchi bobida, muallif tomonidan ishlab chiqilgan material bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda ertaklardan foydalanishning samaradorligi joriy etilgan. Tarbiyalanuvchilarni kitobxonlikka tayyorlash yuzasidan o‘tqazilgan tajriba-sinov ishlarining dasturi, tajriba-sinov ishlari natijalarining umumlashgan tahlili yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning mezonlari ishlab chiqilgan.

Ishlab chiqilgan mezonlar bolalarda tadqiq etilayotgan sifatlarning shakllanganligini belgilashning muayyan talablari qanday darajada amalga oshayotganligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot doirasida amalga oshirilgan ishlarning maktabgacha ta'limda badiiy adabiyotning 6–7 yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlash yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

- aniqlovchi- ta'kidlovchi-tajriba sinov ishlari;
- shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari;
- yakunlovchi tajriba-sinov ishlari.

